


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
УЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

UDK 94(575.171)(072)

SHeripov Umarbek AtajanovichTarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Urganch RANCH texnologiya universiteti
ORCID: 0009-0003-6865-8765**MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR
DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY
GEOSIYOSIY TAHLIL**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007612>

Annotatsiya. Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv tanqisligi, irrigatsiya tizimlarining eskirishi, iqlim o'zgarishi hamda transchegaraviy suv boshqaruvidagi murakkabliklar strategik xavfsizlik masalasiga aylanmoqda. Maqolada Rossiyaning Ob–Irtish havzasidagi ortiqcha oqimning ma'lum ulushini Markaziy Osiyoga yo'naltirish haqidagi g'oyaning (XIX asr oxiri – XXI asr boshi) evolyutsiyasi tarixiy-manbashunoslik va qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Loyiha atrofidagi siyosiy qarorlar (xususan, 1986 yil 14 avgustdagi KPSS MQ siyosiy byurosi muhokamasi) va keyingi davrdagi qayta jonlanish urinishlari geosiyosiy kontekstda baholanadi. Muhokamada loyihaaning iqtisodiy samaradorligi va ekologik xavflari zamonaviy muqobil yo'nalishlar — suv tejankor texnologiyalar, ichki infratuzilmani modernizatsiya qilish, mintaqaviy hamkorlik va talab-taqsimotni boshqarish choralari bilan qiyoslanadi. Xulosa sifatida, yirik «transfer» loyihalari texnik jihatdan mumkin bo'lsa-da, ekologik risklar va geosiyosiy bog'liqlikning yuqoriligi sababli Markaziy Osiyo uchun ustuvor yo'l — ichki samaradorlikni oshirish va institutsional islohotlar ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: suv xavfsizligi, transchegaraviy suv resurslari, gidrosiyosat, Ob–Irtish havzasi, Sibir daryolari, suv eksporti, irrigatsiya modernizatsiyasi, ekologik xavf.

Annotation. Water scarcity in Central Asia has become a strategic security challenge due to climate change, ageing irrigation infrastructure, and the complexity of transboundary water governance. This article traces the historical evolution (late 19th century to early 21st century) of proposals to divert a share of the Ob–Irtish runoff from Siberia to arid regions of Central Asia. Key political decisions, including the CPSU Politburo discussion that halted the project in 1986, and later attempts to revive the idea, are examined in a geopolitical context. The discussion compares the economic rationale and environmental risks of large-scale inter-basin transfers with modern alternatives such as water-saving technologies, domestic infrastructure modernization, regional cooperation, and demand management. The article argues that, despite technical feasibility, high ecological risks and geopolitical dependency make internal efficiency and institutional reforms the most viable priority for the region.

Key words: water security, transboundary water resources, hydropolitics, Ob–Irtish basin, Siberian rivers, water export, irrigation modernization, environmental risk.

Аннотация. Нехватка воды в странах Центральной Азии усиливается под влиянием изменения климата, изношенности ирригационной инфраструктуры и сложности межгосударственного водораспределения. В статье в историко-источниковедческом и сравнительном ключе рассмотрена эволюция идеи переброски части стока рек Обь–Иртыш в засушливые регионы Центральной Азии. Анализируются политические решения, включая прекращение проекта на специальном заседании Политбюро ЦК КПСС 14 августа 1986 г., а также попытки реанимации инициативы в постсоветский период. В разделе «обсуждение» оцениваются экономические аргументы и экологические риски межбассейнового перераспределения воды в сопоставлении с современными альтернативами: внедрением водосберегающих технологий, модернизацией внутренних сетей, усилением региональной кооперации и управлением спросом. Делается вывод, что при всей технической реализуемости крупные «трансферные» проекты несут значительные экологические и политико-экономические риски, поэтому приоритетом должна стать внутренняя эффективность и институциональные реформы.

Ключевые слова: водная безопасность, трансграничные водные ресурсы, гидрополитика, бассейн Обь–Иртыш, переброска стока, экспорт воды, модернизация ирригации, экологический риск.

Kirish. Markaziy Osiyoda suv tanqisligi masalasi so'nggi o'nyilliklarda demografik o'sish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yuqori suvtalabligi, iqlim o'zgarishi va gidrologik rejimning o'zgarishi bilan bir qatorda, irrigatsiya-kollektor-drenaj tizimlarining eskirishi tufayli yanada keskinlashmoqda. Shu sharoitda suv resurslarini tashqi manbalar hisobiga to'ldirish haqidagi g'oyalar vaqt-vaqti bilan kun tartibiga qaytadi. Ulardan biri — Rossiyaning Sibir hududidagi Ob va Irtish daryolari oqimining ma'lum qismini Markaziy Osiyoga yo'naltirish tashabbusidir. Ushbu mavzudagi bahslar faqat texnik masala bilan cheklanmay, ekologiya, iqtisod, xavfsizlik va geosiyosatni qamrab oladi.

Tadqiqot maqsadi — Sibir daryolari oqimini Markaziy Osiyoga burish g'oyasining tarixiy shakllanishi va turli davrlardagi asosiy bahs nuqtalarini tizimlashtirish, shuningdek, loyihaning zamonaviy muqobil yechimlar bilan qiyosiy bahosini berishdan iborat. Vazirfalar sifatida: (1) XIX–XX asrlardagi takliflar va ularning institutsional muhokama maydonlarini tahlil qilish; (2) 1980-yillar oxirida loyihaning to'xtatilishi sabablarini manbalar asosida ochib berish; (3) postsovet davridagi qayta jonlanish urinishlarini geosiyosiy kontekstda baholash; (4) ekologik-iqtisodiy risklar va samaradorlik mezonlarini muhokama qilish belgilandi.

Metodologiya va manbalar. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy usul, manbashunoslik tahlili, muammoli-xronologik yondashuv hamda gidrosiyosiy (hydropolitics) konseptual ramkadan foydalanildi. Manba bazasiga XIX asr oxiridagi nashrlar, sovet davridagi muhokama materiallari, ilmiy to'plamlar, matbuotdagi maqolalar va zamonaviy tahliliy chiqishlar kiritildi. Asosiy faktologik tayanish nuqtalari sifatida Demchenkoning takliflari (1868/1900), 1970–1980 yillarda hisoblangan variantlar, 1986 yildagi siyosiy qaror, hamda 2000-yillardan keyingi qayta muhokama epizodlari olindi.

1. Tarixiy evolyutsiya: g'oyadan institutsional loyihalashga. Sibir daryolari suvini Orol–Kaspiy pasttekisligi va Markaziy Osiyoga yo'naltirish g'oyasi XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. 1868 yilda Yakov Demchenko Ob va Irtish daryolari oqimining ma'lum qismini qurg'oq hududlarga burish taklifini ilgari surgani qayd etiladi [1]. Keyinchalik bu tashabbus 1930-yillardan boshlab qayta muhokama qilindi va ayniqsa 1960–1980 yillarda ilmiy-texnik jamoalar doirasida yirik gidrotexnik loyiha sifatida ishlab chiqildi. 1970–1980 yillarda 150 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislari tomonidan bir necha variantlar hisoblangani, jumladan, Ob daryosi oqimidan 27,2 km³ suv ajratish va uni 2550 km atrofidagi kanal tizimi orqali yetkazish konsepsiyasi muhokama qilingani keltiriladi [2–4]. Sovet davri bahslarida loyihaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish imkoniyatlari bilan birga, kapital xarajatlar va ekologik oqibatlar masalasi ham keskin qo'yilgan.

2. 1986 yil qaroridan keyin: to'xtatish sabablari va bahslar. 1980-yillar o'rtalariga kelib, loyihaning realizatsiyasi iqtisodiy va siyosiy xavflar bilan to'qnash keldi. 1986 yil 14 avgustda KPSS MQ siyosiy byurosining maxsus muhokamasida loyiha rasman to'xtatilgani ma'lum [5]. Manbalarda bu qarorga bir necha omillar: markaziy iqtisodiy inqiroz, Afg'oniston urushi bilan bog'liq katta xarajatlar, shuningdek, «ochiq muhokama»ning kengayishi natijasida ziyolilar va olimlar tanqidining kuchayishi ta'sir etgani ko'rsatiladi. Ekologik yo'nalishdagi tanqidlarda kanal va suv omborlari qurilishi keng hududda tabiiy muvozanatni buzishi, yerosti suvlarini ko'tarishi, botqoqlanishni kuchaytirishi, Ob havzasida baliq resurslarini kamaytirishi va Arktikaga quyilish qismida sho'rlanishni oshirishi kabi risklar ta'kidlangan [3, 6–7].

3. Postsovet davrda qayta muhokama: suv – geosiyosiy resurs. SSSR parchalanganidan keyin loyiha turli shakllarda axborot maydonida qayta paydo bo'ldi. 2000-yillar boshida Moskva shahar rahbariyati darajasida Sibir daryolari oqimining ma'lum qismini Markaziy Osiyoga yetkazish tashabbusi qayta ko'tarilgani va bu fikr «suv»ni geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida ko'rish tendensiyasi bilan uyg'unlashgani kuzatiladi [8–10]. Qozog'iston rahbariyati darajasida ham mazkur mavzuda murojaatlar bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud [12]. Ayrim baholashlarda loyiha qiymati 40 mlrd dollar va undan yuqori ko'rsatkichlarga chiqqan [13].

Shu nuqtada loyihaning «iqtisodiy loyiha»dan ko'ra «strategik resurs» masalasi sifatida ishlatilishi ehtimoli dolzarb: suv eksporti, texnik infratuzilmaga bog'liqlik va narx shakllanishi mexanizmlari mintaqaviy siyosatda qo'shimcha xatarlar keltirib chiqaradi.

Muhokama: yirik transfer loyihasi va muqobil yechimlar. Sibir daryolari oqimini burish g'oyasi texnik jihatdan nazariy amalga oshishi mumkin bo'lsa-da, uning samaradorligi va xavflarini zamonaviy alternativalar bilan qiyoslash talab etiladi. Amalda Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda, suvning katta qismi qishloq xo'jaligida ishlatiladi; shu bois samaradorlikni oshirish, talafotlarni kamaytirish va suv tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish tezroq natija berishi mumkin [14].

Mezon	Sibir daryolari loyihasi	Ichki modernizatsiya va tejash
Investitsiya ko'lami	Dolzarb baholashlarda 40–100 mlrd AQSH\$ gacha	Odatda ancha past; ustuvor tarmoqlarga bosqichma-bosqich
Muddat	Kamida 10 yil va undan ko'p	3–5 yilda sezilarli natijalar
Ekologik xavf	Yuqori (ekotizim, gidrologiya, iqlim)	Nisbatan past (lokal boshqariladi)
Geosiyosiy bog'liqlik	Yuqori	Past/yo'q
Samaradorlik manbai	Qo'shimcha suv oqimi	Talafotlarni qisqartirish, samaradorlikni oshirish

Shu nuqtai nazardan, N. Ikramovning fikrida bildirilganidek, «qo'shimcha suv»ning qiymati juda yuqori bo'lishi ehtimoli bor; demak, ichki infratuzilmani yangilash va talafotlarni qisqartirish iqtisodiy jihatdan ham mantiqan ustuvor ko'rinadi [14]. Shu bilan birga, mintaqaviy darajadagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash, ma'lumot almashinuvi, suv hisobini raqamlashtirish va kelishuvlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish kabi choralar strategik ahamiyat kasb etadi. 2025 yil 17 noyabrdagi «Xalq so'zi»da qayd etilgan mintaqaviy tashabbuslar ham suv masalasining yuqori darajadagi siyosiy kun tartibida turganini ko'rsatadi [15].

Ilmiy yangilik 1) Sibir daryolari oqimini burish tashabbusi texnik loyihadan tashqarida, gidrosiyosiy resurs va ta'sir mexanizmlari nuqtai nazaridan kompleks baholandi. 2) 1986 yildagi to'xtatish qarorining sabablari ekologik bahslar, iqtisodiy cheklovlar va siyosiy liberallashtirish omillari kesimida tizimlashtirildi. 3) Loyiha xavflari (ekologik va geosiyosiy) zamonaviy muqobil yechimlar — suv tejamkor texnologiyalar va ichki infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan qiyosiy jadval asosida taqdim etildi. 4) Markaziy Osiyo uchun ustuvor strategiya sifatida samaradorlik, institutsional islohot va mintaqaviy kooperatsiyani kuchaytirish zarurligi asoslandi.

Xulosa

Sibir daryolari oqimini Markaziy Osiyoga burish g'oyasi tarixiy jihatdan uzoq davrni qamrab olgan bo'lib, muayyan davrlarda suv tanqisligi va iqtisodiy maqsadlar ta'sirida yanada faol muhokama qilingan. Biroq loyihaning amalga oshirilishi yirik kapital xarajatlar, katta ekologik risklar va geosiyosiy bog'liqlik xavfini o'z ichiga oladi. Shu sababli Markaziy Osiyo uchun eng maqbul yo'nalish — mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejamkor texnologiyalarni ommalashtirish va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlashdir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Демченко Д.Г. О наводнении Арало-Каспийской низменности для улучшения климата прилежащих стран. 2-е изд. Киев: печатня С. П. Яковлева, 1900. 139 с.
2. Писаренко Д., Угланов А. Спасёт ли Лужков Среднюю Азию? // Аргументы и факты. 2002. № 51.
3. O'tamov J., Muhammadiyev O'. Asr boshidagi sinov. — B. 174–175.
4. Писаренко Д., Угланов А. Спасёт ли Лужков Среднюю Азию? // Аргументы и факты. 2002. № 51.
5. Yo'ldosh G'. Sibir daryolarini Orol dengiziga burish xomxayol edimi yoki reallik? Kun.uz (08.03.2020).
6. Пузанов А.В., Безматерных Д.М., Винокуров Ю.И. и др. Современное состояние водных ресурсов и водохозяйственного комплекса Обь-Иртышского бассейна // Труды III Всероссийской научной конференции с международным участием. Барнаул, 2017. С. 3–16.
7. Uljayeva Sh. Sibir daryolarini Markaziy Osiyoga burish rejasi va uning keyingi taqdiri (onlayn material).
8. Лужков Ю.М. Письмо Президенту РФ В.В. Путину // Зеленый мир. 2002. № 11–12. С. 6–7.
9. O'tamov J., Muhammadiyev O'. Asr boshidagi sinov. — B. 180–181.
10. Нестерова О. В Средней Азии снова заговорили о повороте сибирских рек (онлайн материал); Турсунов А. О проблеме переброски части стока сибирских рек в бассейн Аральского моря // Электронный журнал «Биосфера». 2003. № 1.
11. Лужков Ю.М. Вода и мир. Москва: Московские учебники, 2008. 170 с.
12. Назарбаев предложил Медведеву перенаправить сибирские реки на юг (07.09.2010) // РИА Новости (онлайн).
13. Yo'ldosh G'. Sibir daryolarini Orol dengiziga burish xomxayol edimi yoki reallik? Kun.uz (08.03.2020).
14. Saparova M. Oldingdan oqqan suvning qadri... baland (onlayn material).
15. «Халқ сўзи» газетаси. 2025 йил 17 ноябрь, № 239.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].